

## MEVALI BOG'LARDA KOMSTOK QURTI (PSEUDOCOCCUS COMSTOKI KUW) QARSHI KARANTIN TADBIRLARINI ISHLAB CHIQUISH (ANDIJON VILOYATI SHAROITIDA)

*Arzibayeva Sevara Bahromjon qizi  
Bektemirov Samandar O'lmasbek o'g'li  
Xayitbekova Muhlisa Mirkomiljon qizi  
Isroilova Muhlisa Abdusalimjon qizi*

**Annotatsiya:** Andijon viloyatida sharoitida olmaning karantin zararkunandasi (**Pseudococcus Comstoki Kuw**) dan himoya qilish uchun mavsumda ishlov o'tkazish, karantin tadbirlarini belgilash muddatlariga tayangan holda tizimda 35-40% xosildorlik saqlab qolish imkonini berdi.

**Kalit so'zlar:** Karantin tadbirlar, uyg'unlashgan qarshi kurash, komstok qurti (**Pseudococcus Comstoki Kuw**), intensiv olma bog'i, karantin tadbirlar, biologik samaradorlik, zararkunanda zichligi, iqtisodiy zarar miqdor mezon, fumigatsiya, zarar, mikroiklim, preparat, ishchi suyuqligi qarshi kurash.

### DEVELOPMENT OF QUARANTINE MEASURES AGAINST COMSTOCK WORM (PSEUDOCOCCUS COMSTOKI KUW) IN ORCHARDS (IN THE CONDITIONS OF ANDIJAN REGION)

**Abstract:** in the Andijan region, seasonal processing to protect apples from the quarantine pest (**Pseudococcus Comstoki Kuw**), allowed to maintain 35-40% productivity in the system based on the deadlines for quarantine measures.

**Key words:** Quarantine measures, combined control, Comstock worm (**Pseudococcus Comstoki Kuw**), intensive apple orchard, quarantine measures, biological efficiency, pest density, economic damage criterion, fumigation, damage, microclimate, drug, fight against working fluid.

### «РАЗРАБОТКА КАРАНТИННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРОТИВ ЧЕРВЯ КОМСТОКА (PSEUDOCOCCUS COMSTOKI KUW) В САДАХ (В УСЛОВИЯХ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

**Аннотация:** в Андижанской области сезонная обработка для защиты яблок от карантинного вредителя (**Pseudococcus Comstoki Kuw**), позволила сохранить урожайность в системе 35-40% исходя из сроков проведения карантинных мероприятий.

**Ключевые слова:** Карантинные мероприятия, комплексная борьба, червь Комстока (*Pseudococcus Comstoki* Kuw), интенсивный яблоневый сад, карантинные мероприятия, биологическая эффективность, плотность вредителя, экономический критерий вредоносности, фумигация, вредоносность, микроклимат, препарат, борьба с рабочей жидкостью.

**Kirish:** Hozirgi kunda mevachilik O'zbekistonning asosiy eksport mahsuloti bo'lib, bog'bon fermerlar zimmasiga meva yetishtirishda uning hosildorligini keskin ko'tarish, mahsulot sifatini yaxshilash, quruq meva tayyorlash hajmini oshirish, aholini hamda qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan to'liq ta'minlab, yuqori sifatli mahsulotni chetga chiqarish yuklatiladi. Mevachilikni yanada rivojlantirish uchun parvarishlash agrotexnikasini doimo takomillashtirib, zamonaviy texnika va texnologiyalarga moslab borish bilan bir qatorda mevali bog'larda uchrovchi zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish talab etiladi.

Meva mahsulotlarini yetishtirishda ayniqsa, zararunandalarini o'z vaqtida aniqlash, rivojlanish va zarar keltirish darajasini aniqlash hisobiga samarali kurash choralarini belgilash nihoyatda muhimdir.

Zeroki, zararkunandalarni rivojlanib, zarar keltirishi o'simlik to'qimasida shira aylanishi boshlangandan to kurtak chiqarib, mevalash, hosilni pishib yetilishi davri oxirigacha ya'ni butun vegetatsiya davri mobaynida davom etadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamizda mevali bog'lar barpo etish va meva yetishtirishni kengaytirish, ularning seleksion ishlarini yanada rivojlantirish, mavjud bog'larda agrotexnika va mehnatni to'g'ri tashkil etish orqali ulardan samarali foydalanish davr talabidir.

Mamlakatimiz mevali bog'larida yetishtirilayotgan mevalar ro'zg'ordan ortib ichki va tashqi bozorlarga ham yetkazib berilmoqda. Bu jarayonda o'simliklarni turli zararli hasharotlardan asrash muhim vazifa hisoblanadi. Xususan, mevali bog'lar uchun eng katta xavf komstok qurti hashoratidir. U mevali bog'larga katta zarar keltirib, ayniqsa, xavfli karantin kushandasidir

Demak, yetishtirilayotgan mevali bog'larda tarqalgan komstok qurti bioekologiyasi, zararini o'rganish va karantin tadbirlarini ishlab chiqish hamda meva hosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslash nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Komstok qurtining vatani Yaponiya va Xitoy davlati bo'lib, entomolog S.Kuvan 1902 yilda bu qurti ta'riflaydi va Amerikalik entomolog sharafiga Komstok nomini beradi. Komstok qurti to'g'risida ko'p yillar mobaynida adabiyot manbalarida ma'lumotlar berilmagan, 1920 yilga kelib matbuotda uning yangi o'choqlari paydo bo'lishi to'g'risida xabarlar tarqala boshladi [4,5,6].

Hozirgi vaqtda komstok qurti Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika va yevropaning ko'pgina mamlakatlarida tarqalgan. MDXda komstok qurti birinchi marta 1939 yilning avgust oyida O'rta Osiyo ipakchilik institutining Toshkent shahri yaqinidagi Jarariq

tajriba xo'jaligida Yaponiyadan keltirilgan yirik bargli tut ko'chatlarida aniqlandi. O'zbekistonda komstok qurti Toshkent viloyatining butun sug'oriladigan qismiga, so'ngra Respublikaning boshqa viloyatlariga xam tarqalib ketdi.

Komstok qurti 1947 yilda Farg'ona viloyatida topildi. Bu yerda qurtlar Toshkent viloyatidagiga qaraganda tezroq tarqaldi. 1953 yilda butun Farg'ona viloyati bog'larining, daraxtzorlarining ko'pligi, tutlarining qalin o'tkazilishi va ariqlar komstok qurtning tez tarqalishiga yordam berdi.

1953-1957 yillarda Andijon viloyatining barcha tumanlarida komstok qurti juda tez tarqaldi. Ushbu zararkunanda 1957 yil Jizzax viloyatining Zomin, Samarqand viloyatining Ishtixon tumani va Samarqand shaxrida, 1960 yil esa Buxoro, Navoiy viloyatlari va 1961 yilda Surxondaryo viloyatining Avg'oniston bilan chegaradosh tumanlarida tarqalgan.

Xorazm va Urganchda 1962 yilda, Qoraqalpog'iston Respublikasi xududlarida 1964 yillarda paydo bo'ldi.

Barcha komstok qurti tarqalgan yerlarda bu hasharotning tutga yetkazishi mumkin bo'lgan zarari aholiga ayon bo'lmoqda. Shuning uchun ichki karantin choralari orqali bu hasharotni mintaqamiz bo'ylab yanada tarqalishining oldini olish talab etiladi.

Komstok qurti biologiyasini o'rganish bilan bir qatorda uning tabiiy kushanda va kasalliklarini o'rganishga katta ahamiyat berilgan.

O'zbekistonda sinovdan o'tgan insektitsidlarning ko'pchiligini sintetik piretroidlar tashkil qilgan. Bular orasida detsis, tsipermetrin, sumi-alfa, karate va boshqalar bor.

**TADQIQOT NATIJALARI.** Komstok qurti - (*Pseudococcus comstoci* Kuw) Teng qanotlilar turkumining koktsidlar turkumining, koktsidlar - *Sossinea* kenja turkumiga mansub. Keng tarqalgan, xammaxo'r xashorat. Uni deyarli barcha mevali va manzarali daraxt, daraxtsimon o'simliklar hamda ayrim o'tsimon o'simliklarda (hatto tut qatorlariga yaqin joylarda g'o'zada ham) uchratish mumkin. Mevali daraxtlardan anor, olma, nok, shaftoli, shuningdek tutlarni qattiq zararlaydi.

Komstok qurtining vatani Yaponiya hisoblanadi. Osiyoda-Isroil, Livan, Suriya, Xitoy, Koreya, Pokiston, SHri-Lanka, Tayvan oroli, Filippin, Hindiston, Eron, Bangladesh, Birma, Vetnam, Yaponiya, O'rta Osiyo respublikalari; Afrikaning □Maydera oroli va Kanar orollari, Keniya; Janubiy Amerikaning □ Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay;

Markaziy Amerikaning-Vest-Indiya, Puetro-Riko oroli; Avstraliya va Okeaniyada-YAngi Janubiy Uels, YAngi Zelandiya va Samoa orollari; SHimoliy Amerikaning-Kanada va AQSH. Rossiyaning Krasnodar, Stavropol va Primoriya (o'lkasi), Qrim, Kavkazorti va O'rta Osiyo Respublikasida keng tarqalgan. O'zbekistonda ichki karantin ob'ekt hisoblanadi.

Erkak va urg'ochi zotlari tashqi tuzilishi bo'yicha keskin farqlanadi. Urg'ochisining uzunligi 2,2 - 2,5 mm, binafsha rangda, qanotsiz, oval shaklda, oq kukunsimon mumsimon g'ubor bilan qoplangan. YOn boshi va tanasining oxirida 17 juft ingichka mumli-ipsimon o'simtalar joylashgan, ulardan dumli juftlik tana uzunligini 2/3 qismiga teng. Mo'ylovi 8 bo'g'imli, uzunligi 5 mm gacha boradi.

Erkagining uzunligi 1,5 mm gacha, qizg'ish jigarrangda, bir juft qanoti bor. Og'iz apparati (yo'q) rivojlanmagan. Qorin qismining oxirida 2 ta oq uzun mumsimon ip bor.

Tuxumi yassi, uzunligi 0,3 mm va en 0,15 mm, bir tarafi o'tmas, tiniq sariq, keyinchalik oqish zarg'aldoq, xira, qobiqlari ko'ndalangi bo'ylab burishgan.

Komstok qurtining ixtisoslashgan kushandalariga ilk bor chet eldan introduktsiya qilingan psevdafikus (*Pseudaphicus malinus* Gah) paraziti, hammaxo'r oltinko'z lichinkalari va «xon qizi» □ koktsinellidlarni (qo'ng'izi va lichinkalari) kiritish mumkin.

Komstok qurti (*Pseudococcus comstoci* Kuw) madaniy va yovvoyi o'simliklarning 300 dan ko'p turini zaralashi mumkin. U o'simliklarning barcha qismini (mevasini, hatto ildizini ham) shikastlaydi. Qurtlari odatda bargning orqa tomonidagi tomirlar bo'ylab oziqlanadi. Qurtning zararidan o'simlik barglari sarg'ayib quriydi, novdalari qing'ir-qiyshiq bo'lib qoladi, daraxt tanasi, ildizlari va shoxlarida shish va yoriqlar xosil bo'ladi. Bunday daraxt zaiflashib, ikkilamchi (po'stloqxo'r) zararkunandalar bilan tezroq zararlanadi. Mevalarning sifati yomonlashib, daraxt xosildorligi pasayib ketadi.

**XULOSALAR.** 1. Komstok qurti (*Pseudococcus comstoci* Kuw) □ O'zbekistonning ko'pgina hududlarida anorga zarar keltiradi. Keng tarqalgan, xammaxo'r xashorat. Uni deyarli barcha mevali va manzarali daraxt, daraxtsimon o'simliklar hamda ayrim o'tsimon o'simliklarda (hatto tut qatorlariga yaqin joylarda g'o'zada ham) uchratish mumkin. Mevali daraxtlardan anor, olma, nok, shaftoli, shuningdek tutlarni qattiq zararlaydi.

2. Komstok qurti yiliga 3-4 ta avlod berib rivojlanadi. Komstok qurti turli joylarda: daraxt, uzum po'stloqlarining osti, ildiz atroflari devor yoriqlarida tuxumlik shaklida qishlab chiqadi.

3. Tajribada Malaton 57% em.k 3,0 l/ga andozada Danadim ekspert 40 % em.k 1,5 l/ga, sarf me'yori miqdorlarida foydalandik

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov.A.X, Ma'rupov.A.I . Bog' va tokzorlarni zararkunandalardan va kasalliklardan himoya qilish choralari. Toshkent-2009

2. Nabiyev I.U. Bog'larni asosiy zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishning kompleks tadbirlari. O'zNIINTI 1989